

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 12/2 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*  
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....217-223

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*  
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*  
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
TATBIQ ETISH METODIKASI .....229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*  
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING  
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK  
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*  
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*  
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM  
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR  
TUSHUNCHASI .....259-265

*Valieva Xolida*  
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI .....266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*  
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING  
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....278-285

*Mamaraimova Zebo Shafokatovna*  
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK  
TAMOYILLARI .....286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*  
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....291-295

*Abdurasulova Shoira Kushakovna*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI  
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*  
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI  
SIFATIDA .....306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

10.00.00– Филология фанлари

**Хожиёва Ойниса Шабоновна**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti  
e-mail: [niso-nur@mail.ru](mailto:niso-nur@mail.ru)

### ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI

**Annotatsiya.** maqolada Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlaridan o'rin olgan maqollar tahlilga tortilgan. Navoiy hikmatlari va turkiy maqollar munosabati aniqlangan. Baytlaridagi irsoli masal san'atining turkiy xalq maqollari bilan aloqasi misollar yordamida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** maqol, hikmat, irsoli masal, Alisher Navoiy, turkiy xalqlar, folklor.

**Khojievа Oynisa Shabonovna**

Alisher Navoi Tashkent State University of  
Uzbek Language and Literature, PhD researcher

### REFLECTION OF TURKISH PROVERBS IN ALISHER NAVOIY'S WORKS

**Abstract.** the article analyzes proverbs from the prose and poetic works of Alisher Navoi. The connection between Navoi's aphorisms and Turkish proverbs is determined. Using examples, the connection between the art of irsoli masal in verse and Turkish folk proverbs is analyzed.

**Key words:** proverb, aphorism, irsoli masal, Alisher Navoi, Turkic peoples, folklore.

**Хожиёва Ойниса Шабоновна**

Докторант, Ташкентский государственный  
университет узбекского языка и  
литературы имени Алишера Навои

### ОТРАЖЕНИЕ ПОСЛОВИЙ ТУРЕЦКОГО НАРОДА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

**Аннотация.** в статье анализируются пословицы из прозаических и поэтических произведений Алишера Навои. Определяется связь афоризмы Навои с турецкими пословицами. На примерах анализируется связь искусства ирсולי масал в стихах с турецкими народными пословицами.

**Ключевые слова:** пословица, афоризм, ирсולי масал, Алишер Навои, тюркские народы, фольклор.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N27>

**Kirish.** Alisher Navoiy – turkiy xalqlar og'zaki ijodining eng buyuk bilimdoni. Buni u zotning har bir asarida ko'rish mumkin. Hazrat Navoiyning xoh nazmiy asarlari bo'lsin, xoh nasrda yozilgan durdonalari bo'lsin, barchasida xalq tafakkuri mahsuli bo'lmish folklor namunalarini uchratish mumkin. Ulug' dahoning benazir asarlari millatimizning bitmas-tuganmas hikmat bulog'idan suv ichgan. Shoirning "Xamsa"sidan tortib fardlarigacha bu hikmat ruhi ufurib turishini sezish mumkin. Alisher Navoiy xalq og'zaki ijodidan o'z asarlarida

foydalanib, ularni boyitdigina emas, balki bu ijod namunalarini qayta ishlab, sayqallab yanada ta'sirchan bir ko'rishda yana xalqning o'ziga taqdim etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Hazrat Navoiyning ijodiy merosi butun turkiy xalqlarning umumiy mulki bo'lganidek, asarlaridan o'rin olgan folklor unsurlari ham birgina o'zbek xalqiga emas, balki barcha turkiy xalqlarga birdek aloqadorligi inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. Shuning uchun shoir asarlaridagi xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiq qilinganida ularni umumturkiy adabiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Alisher Navoiy asarlari tarkibidan o'rin olgan folklor janrlari orasidan eng ommaviysini – xalq maqollarini o'rganishni maqsad qildik. Xalq maqollari butun dunyo xalqlari orasida eng ko'p tarqalgan, yosh, jins, ijtimoiy mavqe tanlamaydigan, makon va zamon oshgan kichik janrdir. Shu bilan birgalikda, istalgan xalqning istalgan asarida, xoh u yozma adabiyot bo'lsin, xoh og'zaki ijod bo'lsin, muhaqqaq maqollar yoki ularning ta'siri uchraydi. Jumladan, hazrat Navoiy asarlari ham bunday xususiyatdan bebahra emas.

Avvalo, shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, hazrat Navoiy butun umri davomida o'zi asarlarida bot-bot qalamga olgan hikmatlarga muvofiq tarzda hayot kechirgan ulug' zot. Uning har bir aytgan so'zi, qilgan ishi, buyurgan amri hikmat-u ibratga misol bo'lib kelgan. Shoirning har bir bosgan qadami bir maqolga jo bo'lgulik iz qoldirgan. Ustoz Omonulla Madayevning "Navoiy suhbatlari" kitobidagi "Birni kessang o'nni ek" rivoyatida Alisher Navoiyning Astrobodda hokimlik davrida unga qadrdon bo'lib qolgan terakni kesib tashlagan inson haqida o'qiyimiz. Rivoyatda terakni kesgan aybdorga "qirq darra urishni, har darra urganda "Birga o'n" degan hikmatni takrorlab turishni tayinlagani aytiladi. Alisher Navoiy shu hikmat mazmuniga muvofiq kesilgan bir terak o'rniga o'nlab teraklarni ektiradi. Rivoyat yakunida shu taerak bahona bo'lib, Astrobodda bog'-rog'lar ko'payganiga diqqat qaratiladi [1; B. 41-42].

**Muhokama.** O'zi-yu so'zi, har bir bosgan izi hikmatdan iborat bo'lganligi ulug' shoirimizning hamma asarlarida o'z aksini topgan. Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan turkiy xalqlar maqollarini dastlab ikki katta guruhga ajratish mumkin.

1. Hazrat Navoiyning nasriy asarlarida uchraydigan xalq maqollari. Bu toifaga, shubhasiz, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan o'rin olgan maqollar kiradi. "Mahbub ul-qulub" asari shunday hikmatlar bilan boyitilganki, uni o'qiyotib xalq maqollari qayerda tugab, Navoiy hikmatlari qayerdan boshlanishini farqlash mushkul. Hazrat Navoiy biror xislat yoki illatga ta'rif berarkan, ham xalq maqollaridan unumli foydalanadi, ham o'z fikrini shu qadar lo'nda, ohangdor qilib ifodalaydiki, bora-bora bu hikmatlarning o'zi xalq orasida og'izdan og'izga o'tib, ommalashib xalqning umumiy mulkiga aylanadi – "maqollashadi". Bunday hikmatlarga ko'plab misollar keltirish mumkin:

***Ko'p degan ko'p yangilur va ko'p yegan ko'p yiqilur.*** Tanbeh (4) [2; B. 218.]

"Mutafarriqa favoyid va amsol surati" qismidan o'rin olgan bu hikmatning antonimini asarning boshqa bir yerida uchratish mumkin:

***Oz degan – oz yengilur, oz yegan – oz yiqilur.*** Tanbeh (120) [2; B. 279.]

Bu hikmat xalq orasida ***Ko'p gapirgan ko'p yanglishar*** shaklida mashhur. Turk folklorida ham aynan shunday maqolga duch kelamiz:

***Çok söyleyen çok yanılır*** [3; B. 220].

“Mahbub ul-qulub”da yana shunday sa’jli hikmat namunasini o’qiymiz:

Yamon bila yaxshi orasi ko’p farqdur

**Ikki kemanding uchin tutqon g’arqdur.** Tanbeh (116) [2; B. 277.]

Bu hikmatda o’zbek xalqining **Ikki kemanding boshini tutgan g’arq bo’ladi** maqoli o’z ifodasini topgan. Turk xalqida bu maqol biroz boshqacharoq shaklda uchraydi:

**İki tavşanın ardından koşan hiçbirini tutamaz** [4; B.354.].

Maqollar orasida ma’no farqi mavjud bo’lib, o’zbek maqolida **“g’arq bo’lmoq”** fe’li orqali qat’iy ogohlantirish ifodalangan bo’lsa, turk maqoli ogohlantirishdan ko’ra ko’proq prognostik xarakterga ega.

“Mahbub ul-qulub”da uchraydigan **Elga qo’shilg’on oroyish topti, eldin uzulg’on osoyish topti** [2; B. 276.] hikmatining xalq og’zaki ijodida bir qancha maqollarga yaqin ekanligini ko’rishimiz mumkin:

Elga qo’shilgan moy yutar,  
Eldan ayrilgan qon yutar.

Elga qo’shilganning ko’ngli to’q,  
Eldan ajralganning beti yo’q.

Elga qo’shilsang, er bo’lasan,  
Eldan ajralsang, yer bo’lasan.

Eldan ayrilguncha, jondan ayril.

Elidan bezgan er o’ngmas,  
Ko’lidan bezgan g’oz o’ngmas...[5; B.16.]

Shuningdek, asarda *Ota dushmanini o’zingga do’st tutma, Ishqsiz eshak, dardsiz kesak, O’t ishi qovurmoq, yel ishi sovurmoq, Libos har nechakim zebodur, kiyganingdin kiydurganing avlodur, Oz-oz o’rganib dono bo’lur, qatra-qatra yig’ilib daryo bo’lur, Tilga ixtiyorsiz, elga e’tiborsiz* kabi hikmatlar borki, ular el orasida yoyilib, maqol maqomiga ega bo’lganiga asrlar bo’lgan desak, yanglishmaymiz.

2. Alisher Navoiyning nazmiy yo’lda yozilgan turli janrdagi asarlaridan o’rin olgan maqollar ham alohida e’tiborga sazovor hodisadir. Bunday maqollarni hazratning “Xamsa”sidan tortib qit’a, ruboiy kabi kichik nazmiy asarlarida ham uchratish mumkin. Biz ularning barchasini badiiy san’atlarning irsoli masal turi doirasida tahlil qilishimiz mumkin. Irsoli masal she’rda maqol qo’llash san’ati bo’lib, mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan badiiy san’atlardan biri sanaladi.

Navoiy baytlarida uchraydigan maqollarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

A) Shoir **“Bu masal mashhur erurkim”, “Masalkim”, “Masaldurkim”, “Masaldurushbuki”, “Ki derlar”** kabi jumlar keltirilib, xalq maqollariga ishora qiladi va shundan soʻng maqolning mazmunini saqlab, shaklan oʻzgargan koʻrinishda taqdim etadi:

Chun masal boʻldi soching zulm ichra, yoshurmoq ne sud

**Mushk isin yashursa boʻlmas, bu masal** mashhur erur.

(“Gʻaroyib us-sigʻar”, 186-gʻazal [8; B. 247.]

Buki, **derlar: “Bordurur devor keynida quloq”**,

Ul fazo davrida koʻz yetguncha devor oʻlmagʻay.

(“Gʻaroyib us-sigʻar”, 611-gʻazal [8; B. 309.]

B) Baʼzi baytlarda maqollar hech bir oʻzgarishsiz, xalq tilida qanday boʻlsa, aynan shundayligicha oʻrin oladi:

Asru mashhurdir bu soʻzda bali:

**“It urar karvon kechar”** masali.

(“Sabʻai sayyor” [11; B. 347.]

Hamul goʻy otilgʻoch qochib yak-bayak,

Masaldurki: **“Ming qargʻaga bir kesak”**.

(“Saddi Iskandariy” [12; B. 246])

C) Baytda maqolga ishora qiluvchi soʻz boʻlmaydi. Maqol misraning davomida sifatida keladi. Shu bilan birgalikda, biroz shakily oʻzgarishlarga uchraydi:

Navoiy, tiling asragʻil zinhor,

Desangkim, yemay dahr ishidan fusos

Nazar qilki, oʻq ogʻzi tilsiz uchun,

Qilurlar tojvarlar bila dastboʻs.

Necha tojvarlar **kesarlar boshin,**

**Chu hangomsiz nagʻma tortar xurus** [6; B37.].

Garchi ishq oʻtida koʻnglumni oʻqungga shishlading,

Garm boʻlmakim, hanuz **ne six kuymish ne kabob** [7; B. 27.].

Yuqoridagi “Tilingni asragʻil...” qitʻasida **Bemahal qichqirgan xoʻrozning boshi ketadi** maqoli mazmunan oʻz ifodasini topgan boʻlsa, keyingi baytda **Six ham kuymasin, kabob ham** maqolining mazmunini uqib olish mumkin.

**Natijalar.**

Quyida Navoiy baytlarida uchraydigan maqollarni turkiy xalqlar ijodi bilan qiyoslab, jadvalda aks ettirishga harakat qildik.

Alisher Navoiy ijodida	O'zbek folklorida	Turk folklorida
Ko'z ochmassen, debon: "kelgan qulumdur", Masal chin bo'ldikim: "uyqu - o'lumdur!". ("Farhod va Shirin" [10; B. 454])	Uyqu - o'limdir.	Uyku ölümün kardeşidir. (Uyqu o'limning ukasidir)
O'qlaring ko'nglumga tushkach kuydi ham ko'z, ham badan Kim, kuyar o'lu qurug' chun naysitong'a tushti o't. ("G'aroyib us-sig'ar", 86-g'azal [8; B. 47])  Qamishliq ichra chun o't tushti nogoh Qurug'-o'l kul bo'lur bo'lg'uncha ogoh. ("Farhod va Shirin". [10; B. 312.]	O'rmonga o't ketsa, ho'l-u quruq baravar yonadi.	-
Har kishikim birovga qozg'oy choh, Tushgay ul choh aro o'zi nogoh. ("Sab'ai sayyor", [11; B. 262.]	Birovga choh qazisang, unga o'zing tushasan.	El için kuyu kazan, evvela kendi düşer.
Chu marza' ichra sochting har ne dona, Hamul dona ko'targung jovidona ("Farhod va Shirin" [10; B. 178.]	Nimani eksang, o'shani o'rasan. Har kim ekkanini o'radi.	Ne ekersen onu biçersin.
Qachon sochsa tufroqqa bug'doy birav, Yo'q imkonkim, ul arpa qilg'ay darav. ("Saddi Iskandariy" [12; B. 388.]	Arpa ekib, bug'doy kutma.	Arpa eken buğday biçmez. (Arpa ekkan bug'doy o'rmaydi)
Roi esang tut bu nafas yaxshi pos, Har qo'yni o'z ayog'i birla os. ("Hayrat ul-abror", [9; B. 326.]	Har qo'yni o'z oyog'idan osadilar.	Her koyun kendi bacağından asılır.

Quyoshni zarra yoshurmoq bo'lurmu, Hubob uzra tengiz turmoq bo'lurmu? [“Farhod va Shirin”, [10; B. 194.]]	Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.	Güneş balçıkla sıvanmaz. (Quyoshga loy chaplab bo'lmaydi)
Anga ashk to'kmakta ma'zur edi, Ajab ishki, qon birla qon yur edi. [“Saddi Iskandariy”. [12; B. 321.]]	Qonni qon bilan yuvib bo'lmaydi.	Kan kanla yıkanmaz.

Bu jadvaldagi misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Biz ayrim namunlar bilan cheklandik. Lekin Navoiy ijodidagi xalq og'zaki ijodi unsurlari chuqur va sistemali tadqiq qilinishi maqsadga muvofiq.

### Xulosa.

1. Alisher Navoiyning barcha asarlari xalq og'zaki ijodi bilan chambarchas bog'liq. Nasriy va nazmiy asarlari xalq zakosidan suv ichadi. Shuning uchun ulug' shoir ijodi folklor bilan birgalikda tadqiq qilinishiga ehtiyoj bor.

2. Navoiy hikmatlarini tahlil qilib, maqollarning yaralish tadrijiga bevosita guvoh bo'lish mumkin. Chunki, u zotning didaktik asarlarida jamlangan hikmatlarining aksari bugungi kunga kelib xalqning umumiy mulkiga aylangan – maqollashib qolgan.

3. Navoiy asarlaridagi folklor janrlari barcha turkiy xalqlar adabiyotiga mansub bo'lganidek, shoirning asarlari ham umumturkiy adabiyot xazinasiga oid. Hazrat Navoiy ayirmachilik qilmay, barcha xalqlar uchun ijod qilganidek, uning asarlarini ham nafaqat turkiy xalqlar, balki dunyo xalqlari o'ziniki sanab ardoqlaydi.

Buyuk bobomiz yoqib ketgan hikmat mash'alasi hamisha turkiy millatlar yo'lini charo'g'on qilib turadi.

### Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Мадаев О. Навоий суҳбатлари. Тошкент. “Ўқитувчи”. 2018. 41-42 бетлар.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул қулуб; қисқартириб насрий табдил қилувчи И. Махсумов; масъул муҳаррир С. Ғаниева. Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2022.
3. Aksoy Ömer Asım. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü I. İstanbul. İnkılap. 2020.
4. Hengirmen Mehmet. Atasözleri sözlüğü. Ankara. Engin. 2011.
5. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov. Toshkent: “Sharq”, 2019. 16-bet.
6. Ҳаққул Иброҳим. Камол эт касбким. Тошкент: Чўлпон, 1991. 37-бет.
7. Alisher Navoiy. Orazin yopqoch ko'zumdin... Toshkent: Pharos ambition, 2023. 27-bet.

8. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Масъул муҳаррир П. Шамсиев. Тошкент: “Фан”, 1988.
9. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик, еттинчи том. Ҳайратул-аброр. Тошкент: «Фан» —1991.
10. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик, саккизинчи том. Фарҳод ва Ширин. Тошкент: «Фан» —1991.
11. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик, ўнинчи том. Сабъаи сайёр. Тошкент: «Фан» —1992.
12. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик, ўнинчи биринчи том. Садди Искандарий. Тошкент: «Фан» —1993.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).